



OQOLTIN TUMANI SUV RESURLARIDAN QISHLOQ XO'JALIGIDA OQILONA FOYDALANISH

Meyliyeva Shoxista Rustamovna

*Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti "Irrigatsiya va melioratsiya"
kafedrasida assistenti*

Bobojonov Nurimon Shaxriyor-o'g'li

"PT (Suv xo'jaligi va melioratsiya)" ta'lim yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: *Mamlakatimiz mustaqillikni qo'lga kiritgan ilk kunlardan boshlab qishloq xo'jaligini rivojlantirish suv resurslaridan oqilona foydalanish maqsadida ko'plab dasturlarni amalga oshirdi. Shu bilan birga, qishloq xo'jaligida suv tejovchi texnologiyalardan foydalanish uchun, ko'plab investitsiyalar jalb qilindi.*

Kalit so'zlar: *texnologik usul, tutchilik, pillachilik, Mirzacho'l dashti, sho'rlangan hududlar, yashil hudud dasturi.*

KIRISH.

Suv tanqisligi muammosi bizning mamlakatimizni ham chetlab o'tgani yo'q. Hozirgi kunda mamlakatimizning ko'plab hududlarida suv tanqisligi muammosi yuzaga kelmoqda, bunday muammolarni keng qamrovda avj olmasligi uchun hozirdan suvdan foydalanishda zamonaviy suv tejovchi texnologiyalarni amalda qo'llash talab qilinadi. Oqoltin tumani ham qishloq xo'jaligida suvdan oqilona foydalanish uchun ko'plab ishlarni amalga oshirishi lozim.

Oqoltin tumanining qishloq xo'jaligi sohasida suv resurslarining ahamiyati juda kattadir tuman suvga bo'lgan ehtiyojini, asosan, Janubiy Mirzacho'l kanali va Markaziy tarmoq kanali orqali qondiradi. Shu bilan bilan birga, aholi iste'molidagi suvlarning asosiy qismi toza ichimlik suvlari sanaladi.

Oqoltin tumani Mirzacho'l dashtida joylashganligi tuman tabiat kompleksiga ham ta'sir ko'rsatgan. Sababi, Mirzacho'l dashtining sho'rlangan tuproqlari tuman yerlariga ham ta'sir ko'rsatgan.

Oqoltin tumanining umumiy yer maydoni 0,57 ming km² tashkil qiladi, shundan, ekin maydonlari 36,9 ming gektarni tashkil qiladi, boshqa yer maydonlari 18,1 ming gektarni tashkil qiladi. Shu bilan birga, paxta maydonlari egallagan yerlar 19,9 ming gektar, g'alla maydonlari egallagan yerlar 14,1 ming gektar, boshqa ekin maydonlari egallagan yerlar 2 ming gektarni tashkil qiladi.

Oqoltin tumanida meliorativ holati yomon bo'lgan yerlar ham kata maydonni egallaydi. Bunday yerlarning umumiy maydoni qariyb 150 gektarni tashkil qiladi. Meliorativ holati yomon yerlarni maydonining keng tarqalishiga asosiy sabab, yerlardan maqsadsiz va isrofgarchilik bilan foydalanish, Mirzacho'l dashti qishloq xo'jaligida foydalaniladigan suvning isrof qilinishi sabab bo'lmoqda.

Oqoltin tumanida qishloq xo'jaligida foydalaniladigan suvni tejamkorlik bilan ishlatish uchun bir qancha dasturli ishlarni amalga oshirish lozim.



Bularga: uzoq masofaga olib boriladigan suvni lotoklar yoki quvurlar yordamida amalga oshirish lozim.

Sababi, agar suvdan shunday yo'l bilan sug'orishda foydalanilsa suvni yerga shimilishining va bug'lanishining oldi olinadi.

Bundan tashqari, suv resurslaridan tadrijiy foydalanish uchun hokimlik tomonidan "Yo'l xaritasi" ishlab chiqarilishi lozim. Hozirgi kunda suvga bo'lgan ehtiyoj yildan yilga ortib bormoqda, biroq, suv resurslari esa kamayib bormoqda suvni ko'p talab qilinishi esa kelajakda aniq prognoz hisoblanadi. Chunki, mamlakatimizning barcha hududlarida, jumladan, Oqoltin tumanida aholi soni va uning ehtiyojlari yildan yilga ortib bormoqda, buning natijasida suv resurslariga bo'lgan talab ortib boradi. Kelajakda suv bilan bog'liq muammolar kelib chiqmasligi uchun suv resurslarini hozirdan tejash lozimdir.

Oqoltin tumanida yer resurslaridan, asosan, quyidagi maqsadlarda foydalaniladi.

Sabzavotchilik, polizchilik – 1500 gektar.

Bog'dorchilik – 2000 gektar.

Chorvachilik – 2000 gektar.

Parrandachilik – 100 gektar.

Baliqchilik – 100 gektar.

Boshqa yo'nalishlar – 346 gektar.

Kartoshka ekish rejasi – 574 gektar.

Sabzavot ekish rejasi – 323 gektar.

Soya ekish rejasi – 600 gektar.

Tut ekish rejasi – 300 000 dona.

Yashil maydon bo'yicha daraxt ekish rejasi – 2 000 000 dona.

Yuqorida ko'rinib turibdiki, Oqoltin tumanining katta qismi qishloq xo'jaligi maqsadida foydalanish uchun aholiga xizmat qilmoqda. Demak suv resurslari ham shunga monand ravishda ko'p miqdorda sarf qilinadi. Suvdan tejab foydalanish kelajakda suv va boshqa muammolar yuzaga kelmasligi uchun qo'yilgan asosiy qadamdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 – yil 10 - iyuldagi "O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligini rivojlantirishning 2020 – 2030 - yillarga mo'ljallangan Konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" 6024 – sonli farmoni. Toshkent, 2020.

2. Urunov I. "Atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish sohasidagi faoliyatlar". -T.: 2010.

3. Hasanov I.A., G'ulomov P.N. "O'zbekiston tabiiy geografiyasi". –Toshkent, 2007.

4. Oqoltin tumani statistika qo'mitasi ma'lumoti.

5. www.ziyo.net.

6. www.uzstat.uz